

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA GIJJA KASALLIKLARIGA QARSHI TIBBIY AXLOQ MASALALARI VA PROFILAKTIKASI.

¹Shukrullayeva Mexribon Ulug'bekovna,

²Ismoilov Komil Tuygunovich

SamDTU, pediatriya fakulteti 1-bosqich
talabasi

E-mail:shukrullayevamexribon@gmail.com

**2.SamDTU, Tibbiy biologiya va genetika
kafedrasi assistenti**

E-mail:k88146525@gmail.com

+998 99 5900289

**Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Samarqand,O`zbekiston**

Annostatsiya: Talabalar va bolalarni parazitlarsiz, sog'lom hayot kechirish, sog'lom turmush tarzining talab etadigan qoidalari va buning uchun hozirda mavjud tibbiy axloq, tibbiy profilaktika, sanitariya-gigiyena qoidalarga rioya qilishni mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek maqolada sharq mutafakkiridan Abu Ali Ibn Sinoning gijja kasalliklaridan saqlanishning tibbiy axloq va tibbiy profilaktika masalalari bo'yicha mulohazalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiy axloq, tibbiy profilaktika, sanitariya-gigiyena, gijja, gementoz, lyambliya, ostritsa, parazit, tekinox'r, Abu Ali Ibn Sino.

Dolzarbli: Hozirgi kunda gijja kasalligi dunyoda tarqalishi bo'yicha nafas yo'llari kasalliklaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har to'rt kishidan biri gelmintozi (gijja)lar bilan kasallangan. Bugungi kunda odamlar, hayvonlar va o'simliklar hisobiga yashovchi parazitlarning 15 mingdan ziyod turi ma'lum. Shulardan askarida va ostritsa gelmentlari insonlarda ko'proq uchraydi. Shu sababli ushbu tekinox'rlarni yuqtirmaslik uchun bolalar tibbiy axloq, tibbiy sanitariya-gigiyena qoidalari va bolalarga sog'lom turmush tazini o'rgatish, muhim, kechiktirmas vazifamizdir [1,5].

Material va uslublar: Gijjalar va ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlari hamda davolash usullari xususida sharq mutafakkirlari va hozirgi zamon

shifokorlarning fikrlari bilan tanishtirish. Qadimgi olimlar yozib qoldirgan manbalar va bugungi kundagi shifokorlarning intervyulari oqali olingan ma'lumotlardan foydalanib parazitlardan saqlanish va ularni davolash chora tadbirlari haqidagi ma'lumotlarni ommaga taqdim etish.

Natijalar va muhokamalar: Odam va hayvonlarning a'zo, to'qimalari hisobiga yashovchi mayda chuvalchanglar - gijja (gelmint)lar keltirib chiqaradigan kasalliklar gelmintozlar deyiladi. Gijja kasalligi insoniyatga juda qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, Abu Ali ibn Sino tanadagi gijjalar tufayli ishtaha buzilishi, tana harorati ko'tarilishi, miya faoliyati, yurak sohasidagi noxush sezgi va ichak faoliyati buzilishi kabi og'ir hamda xavfli holatlar (simptomlar)ni keltirib chiqarishini aytib bergan. E'tibor bersangiz, ko'pincha bolalarda tirnoq tishlash odati bo'lib, unga befarq bo'lmaslik kerak. Chunki qo'l yuvilgan taqdirda ham tirnoqda qolgan infeksiyalar nafaqat gijja, balki ichak infeksiyalari, hatto gepatit A kasalligini ham keltirib chiqaruvchi omildir. Gijjalarning xili, soni va qaysi organda parazitlik qilishiga qarab kasallik turlicha kechadi. Har bir parazitning o'zi "yaxshi ko'rib" yashaydigan a'zosi bo'ladi va shu a'zoni u ma'lum darajada shikastlaydi. Gijja kasalliklarida umumiy quyidagicha belgilari - holsizlanish, kamqonlik, jizzakilik, ko'ngil aynishi, ich ketishi, bosh aylanishi, doimiy charchoq, vazn yo'qotishlar kuzatiladi. Terida toshmalarning paydo bo'lishi parazitlarning toksinlari hisobiga yuz beradi. Gijja ichakda bo'lsa, ich ketadi yoki qotadi, ko'ngil ayniydi. Jigarda bo'lsa, ko'z oqi va badan sarg'ayadi, shish paydo bo'ladi, teriga har xil dog'lar tushadi. O'pkaga joylashgan parazitlar isitma chiqarib, yo'tal paydo qilishi mumkin. Shuningdek, "sodda tekinxo'rlar" tufayli odamning mehnat qobiliyati pasayadi, bolalar rivojlanishdan orqada qoladi, xotira pasayib, uyqu buziladi, hatto tish g'ichirlatish odatga aylanadi. Gijjalar turiga qarab har xil usullarda yuqishi mumkin. Masalan, lyamblya - o'zidan o'zi odam organizmida alimentar usulida iflos qo'l, notoza buyumlar orqali yuqadi. Bu parazit yuqtirib olgandan so'ng esa ishtaha bo'g'ilishi, ertalab nonushta qilishga qiynalish, bolalarda injiqlik, jizzakilik, o'z-o'zidan ich ketishi va qotishi kabi alomatlar paydo bo'la boshlaydi. Lyambly asosan, og'iz bo'shlig'iga ifloslangan

taom yoki yegulik orqali tushadi. [1,2,5,6]. Uni davolash uchun ko'pincha klizma qilishadi. Holbuki, bu usul uni yo'qotishda yordam bermaydi. Chunki klizma lyamblya o'rnashgan joygacha yetib bormaydi. Lyamblya o't yo'llarida, o'n ikki barmoqli ichakda parazitlik qiladi. Biz taom tanovul qilganimizda, ovqat hazm bo'lishi uchun oshqozondan keyin o'n ikki barmoqli ichakka o'tadi. Lyamblya o'n ikki barmoqli ichakda odam organizmi uchun zarur vitaminlar, minerallar, kaliy, kalsiyalar bilan oziqlanadi. U qaynatilmagan suv va ichimliklardan yuqishi mumkin. Shu bois ichimlik suvi bilan bog'liq muammolar qishloq va hattoki shahardagi ko'p qavatli binolarda ham ko'p uchraydi.

Bolalar gijjasi organizmga joylashgach, 4-6 soat ichida kasallik qo'zg'atadi. Aksariyat hollarda bolalarning bir maydonchada o'ynashi, bitta tuvak, idish-tovoqdan foydalanish uni yuqtirishga yo'ldir. Ostritsa, asosan, o'n ikki barmoqli ichak hamda yo'g'on ichakda joylashib, o'rmalab harakatlanadi va tuxum qo'yadi. So'ng o'sha sohada qichishish yuzaga keladi. Ushbu gelmintlar 1-1,5 oy hayot kechiradi. [3,4].

Askarida esa ko'p hollarda tozalanmagan mahsulotlar hamda hasharotlardan tarqalib, oshqozon, me'da osti bezi, jigar, o't qopi yo'llarida harakatlanishi mumkin. Askaridoz parazitlari bilan kasallangan bolalarda neyrodermit, astma, ekzema, pnevmoniya kabi xastaliklar uchrashi mumkin. Askaridaning hayot sikli bir necha yillarga yetadi. Bola organizmi kurashish qobiliyati pastligi bois parazit bemalol ko'payadi. Askarida yuvilmagan meva va sabzavotlar hamda ko'katlar orqali inson organizmiga tushadi. Ko'pincha zararlanish bolalarning hayvonlar bilan muloqotida, ular axlati tushgan tuproq va qumlarda o'ynaganda ham kuzatilishi mumkin. Shu sababli bolalar ko'chada o'ynab kelganidan so'ng qo'llarini yuvishini nazorat qilishi, tibbiy madaniyatni o'rgatish hamda biz kattalar tibbiy axloq masalasi bo'yicha birinchilardan o'zimiz o'rnak bo'lishimiz kerak bo'ladi. Shuningdek, gijjalar organizmdagi vitaminlar, uglevodlar, oqsil va mineral moddalarni so'rib oladi, organizmda kamqonlik (anemiya) va vitaminlar yetishmasligi (avitaminoz) kelib chiqadi. [7]. Juda ko'p kasalliklarni, jumladan, tutqanoq, parisonxotirlik, teriga oq dog'lar tushishi, bronxit, bronxial astma,

dermatit, bronxopnevmoniya va boshqalarni keltirib chiqaradi. Buning oqibatida organizm immuniteti pasayib, o'tkir kasalliklar surunkali shaklga o'tib ketish holatlariga aynan gijjalarning sabab bo'lganini Ibn Sino o'z asarlarida misollar keltirib o'tgan. Uning qayd etishicha- qurtlar ta'sirida organizm kasallikka chalinuvchan va moyil bo'lib qoladi. Kasallik har bir odamda o'ziga xos kechadi, shuni hisobga olgan holda, davolanish muolajasini olishdan oldin tibbiy axloq, gigiyena qoidalarini yaxshi o'rganib, unga amal qilib keyin sihatlanish ishlari olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb uqtiradi. [1,2].

Hozirgi kunda bolalarda parazitlar borligiga gumon qilinsa, birinchi navbatda najas analizi bir necha kun oralig'ida 3 marta olinadi. Gelmintlar hamda umumiy tahlil uchun qon analizi ham talab qilinadi. Shuningdek, ichki a'zolar ultratovush tekshiruvidan va rentgenografiyadan o'tkaziladi. Yilida ikki marta shifokor ko'rigidan o'tish, gigiyena va tozalikka e'tibor qaratsangiz, parazitlar sizni bezovta qilmaydi.

Gelmint infeksiyalari yoki gelmintik-invaziyalar bu kattalar tanasiga maxsus gelmint parazitlarining kirib kelishi natijasida yuzaga keladigan o'tkir yuqumli kasalliklar. Bularga tekis, yumaloq, halqali va boshqa qurtlar kiradi. Bunday patologiyalar tizimli ta'sirga ega va deyarli har doim surunkali shaklda bo'ladi. Gelmintlarning bolalarda tez-tez paydo bo'lishining asosiy sababi parazit lichinkalari va tuxumlarining tez rivojlanishi uchun bolaning nozik tanasi optimal muhit hisoblanadi. Parazitlar bunday qulay muhitda o'zini yaxshi his qiladi, tez ko'paydi, keng tarqaladi. Bunga esa bolalarning o'zi ham shaxsiy gigiyena, tibbiy axloq qoidalariga rioya qimasdan sharoit yaratib beradilar. Ko'pincha bolalar, o'smirlar parazitlar infeksiyasini fekal-og'iz usulida yuqtirib oladilar. Gelmint tuxumlari kasallangan odamlar va hayvonlarning najasda to'kiladi. Abu Ali Ibn Sino qurtlarni davolashning an'anaviy usullari haqida gapirganida, biz birinchilardan qovoq urug'i hamda sarimsoq piyoz haqidagi muolajalari esimizga keladi. Bu tabiiy nematlar kattalarga ham bolalarga ham berilishi mumkin. Avitsenaning fikriga ko'ra ular parazitlarni yo'q qila oladigan kukurbitinlarni o'z ichiga oladi. Ammo qovoq urug'lari sizni gelmintlardan butunlay davolay olmaydi.

Agar siz tibbiy axloq, gigiyena-sanitariya qoidalariga rioya qilmasangiz. Hozirda bolalarda eng ko‘p uchrayotgan parazit turi bu - lyamblya hisoblanadi. Layamblya – oddiy, sodda hayvon bo‘lib, u organizmga tushganda o‘zidan o‘zi tez ko‘payadi. Shifokorimiz Saodat Temirovaning shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan fikriga ko‘ra, lyamblyani shikoyat bo‘lsagina davolash maqsadga muvofiq deb bilishadi. Lyamblyaning alomatlari; ishtaha bo‘lmaydi, ertalab nonushta qilishga qiynalish, kun bo‘yi och qorinda yurish, bolalarda injiqlik, jizzakilik, ich o‘z-o‘zidan ketishi va qotishi bo‘ladi. Yuzdagi oq dog‘lar har doim ham gijja alomati emas ekan. Ular zamburug‘dan ham bo‘lishi mumkin. Lyamblyani ko‘pincha klizma qilishadi, holbuki, uni yo‘qotishda klizma qilish befoyda. Chunki klizma lyamblya o‘rnashgan joygacha yetib bormaydi. Lyamblya o‘t yo‘llarida, o‘n ikki barmoq ichagida ko‘proq parazitlik qiladi. Biz taom tanovul qilganimizda, ovqat hazm bo‘lishi uchun, oshqozondan keyin o‘n ikki barmoqli ichakka o‘tadi. Lyamblya o‘n ikki barmoqdagi odam uchun kerakli vitaminlar, minerallar, kaliy, kalsiylar bilan oziqlanadi. Lyamblya qaynatilmagan suv va ichimliklardan yuqishi mumkin. Lyamblyani davolash usullaridan biri uni o‘ldiradigan dori 5 kun ichiladi. Lekin bu dorini berishdan oldin jigarni yaxshilab tekshirish kerak. Keyin o‘lgan lyamblyalarni 5 kun ich surar qilib tushirish lozim. “Tib qonunlari”da keltirilishicha 20 kun yoki 1 oy o‘t haydovchi (makkajo‘xori popugi)ni berilsa, lyamblya o‘lib ketadi.

Uy sharoitida bemor o‘z salomatligiga tayangan holda quyidagi berilgan belgilar kuzatilsa, gijja yuqganligi ehtimoli yuqori bo‘ladi: Ko‘pincha orqa chiqaruv teshigida qichishish paydo bo‘lishi; Teri ustida donacha va dog‘lar paydo bo‘lishi; Tez-tez bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi; Tez-tez ko‘ngil aynishi, zaharlanishsiz qayt qilish; Qorin dam bo‘lishi, og‘rishi, ich ketishi, ich qotishi; Uyqu buzilishi, uyqusizlik; Oyoqlarning to‘satdan shishishi; Yo‘tal, bronxit, astmatik xurujlar, teri reaksiyasi kabi allergiyalar; Limfa tugunlari yallig‘lanishi yoki kengayishi; Tezda o‘tib ketadigan og‘riqlar; Ovqatlanishlar orasida og‘izda achchiq ta‘m sezish; Zaiflik, ma‘lum sabablarsiz charchash; Kasalliksiz tana haroratining ko‘tarilishi; Teri va shilliq to‘qimalarning odatdagidan ko‘ra sariqroq

ko'rinishi; Uyda doimiy aloqa qilib turadigan uy hayvoni mavjudligi; Zo'riqish bo'lmaganida ham mushaklar va bo'g'implarda og'riq; Kechki xurrak otish va tishlarni g'ijirlatish; Oxirgi bir necha oy ichida quritilgan baliq, cho'chqa go'shti va boshqa yaxshi ishlov berilmagan go'sht mahsulotlarini iste'mol qilganlik; Parhezsiz va turmush tarzingizda hech qanday o'zgarishsiz vazn yo'qotish; Sabzavot va mevalarni to'g'ridan-to'g'ri bog'dan yoki do'kondan olib yeyish, ularni qaynoq suv bilan yuvmaslik. Agar gijja bilan kasallanish ehtimoli mavjud bo'lsa, profilaktik choralarni ko'rish va davolanishni boshlash joiz. Zararlanganlikni aniqlash uchun eng samarali tahlil immunofermentiv tahlil sanaladi.

Hozirgi kunda bu parazit niqlashda birinchi belgilar paydo bo'lganda, parazitlarga gumon qilinganda quyidagi tadbirlar o'tkaziladi; Najas analizi 3 marta olinadi, oralig'i bir necha kun bo'lishi kerak; Qonning gelmintlarga analizi; Qonning umumiy tahlili (ostritsa tuxumlariga); Qo'shimcha tekshiruv sifatida: Ichki a'zolar ultratovush tekshiruvi; Rentgenografiya; Bu tekshiruvlar parazitlarning boshqa organlarda joylashgan joylarini aniqlab beradi.

Xulosa: Parazitlarning turlari har xil bo'lganligi tufayli ular turli organlarga ta'sir qiladi, bu aynan ichaklar va oshqozon-ichak traktining boshqa qismlari bo'lishi shart emas. Agar jigar zararlangan bo'lsa, alomatlar biroz boshqacha bo'ladi: o'ng ko'krak ostida og'riq, teri va ko'z oqining sarg'ayishi, ko'ngil aynish kabilar.

Yilida ikki marta o'zingizga vaqt ajratib, shifokorga murojaat qilib, tekshirtirib tursangiz hamda asosiysi gigiyena va tozalikka e'tibor qilsangiz parazitlar sizni bezovta qilmaydi. Gijja borligini aniqlashning bir necha yo'li mavjud. Poliklinikada bemorga so'lak, najas va qon tahlili topshirish tavsiya etiladi. Yuqumli parazitlardan shikoyat bo'lganda, infeksiyona va parazitologga murojaat qilinadi. Ularga terapevt, bolalar uchun esa pediatr tomonidan yo'llanma berilishi mumkin. Kasallik har bir odamda individual tarzda kechadi, shuni hisobga olgan holda, qanday davolanish muolajasini olishdan oldin shifokor bilan maslahatlashishni unutmang!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino (Tib qonunlari 1-jild) A. Qodiriy nashriyoti 1993-yil
2. Abu Ali ibn Sino (Tib qonunlari 3-jild) A. Qodiriy nashriyoti 1992-yil
3. Mamatqulov B.M., Nodirov T. Sog'lom turmush tarzi va oila salomatligi. O'quv qo'llanma Qarshi, 2018yil
4. Mukhitdinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
5. XIDIROV L.A., Ismoilov K.T, "Inson uchun eng muhim mahsulotlar va ularning organizmdagi roli". ToshDPI "Zamonaviy tibbiyot yosh olimlar nigohida" "inson qadrini ulug'lash va faol mahalla Yiliga bag'ishlangan "Talabalar ilmiy jamiyati"ning Respublika 50-ilmiy – amaliy onlayn videokonferensiya MATERTALLARI Toshkent. 2022, 20-may 602-603 bet
6. Yunusova Z.T., ., K.T. Ismoilov, Biologiya darslarida Ibn Sino ilmiy merosi va qo'shimcha qiziqarli ma'lumotlardan foydalanishning ahamiyati/"O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn Konferensiya materiallari 22 qism Toshkent, 2020y, 31 iyul
7. Ермакова Н. А., Мельниченко П. И. и др. Образ жизни и здоровье студентов : научное издание // Гигиена и санитария. - М., 2016. - Том 95 N6Г5016. - С. 558- 563.